

**FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIDA YURIDIK YORDAM OLIISH
HUQUQINING KAFOLATLARI****Abdiyeva Mujgona Amirkulovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullari” yo‘nalishi magistranti.

E-mail: mujgonammm@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20322189>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik protsessual huquqida yuridik yordam olish huquqining mazmuni, huquqiy tabiati va uni ta'minlovchi protsessual kafolatlar tahlil qilingan.

Shuningdek, fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakillik institutining ahamiyati, bepul yuridik yordam ko'rsatish mexanizmlari hamda odil sudlovni ta'minlashda yuridik yordamning o'рни yoritilgan. Qolaversa, amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotidagi ayrim muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik protsessual huquqi, yuridik yordam, bepul yuridik yordam, protsessual kafolatlar, vakillik, advokat, sud himoyasi, odil sudlov, protsessual tenglik, huquqiy himoya.

Аннотация. В данной статье анализируется содержание, правовая природа права на получение юридической помощи в гражданском процессуальном праве и обеспечивающие его процессуальные гарантии. Также освещается значение института представительства в гражданском судопроизводстве, механизмы оказания бесплатной юридической помощи и роль юридической помощи в обеспечении правосудия. Кроме того, проанализированы некоторые проблемы в действующем законодательстве и правоприменительной практике, высказаны предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: гражданское процессуальное право, юридическая помощь, бесплатная юридическая помощь, процессуальные гарантии, представительство, адвокат, судебная защита, правосудие, процессуальное равенство, правовая защита.

Abstract. This article analyzes the content, legal nature of the right to receive legal assistance in civil procedural law, and the procedural guarantees that ensure it. It also highlights the significance of the representation institute in civil proceedings, the mechanisms for providing free legal assistance, and the role of legal aid in ensuring justice. Furthermore, some problems in current legislation and law enforcement practice were analyzed, and proposals and recommendations for their elimination were voiced.

Keywords: civil procedural law, legal aid, free legal aid, procedural guarantees, representation, lawyer, judicial protection, justice, procedural equality, legal protection.

Kirish

Huquqiy demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishidir. Sud orqali huquqlarni himoya qilish mexanizmi samarali bo'lishi uchun shaxs nafaqat sudga murojaat qilish huquqiga, balki malakali yuridik yordam olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi lozim.

Ayniqsa, fuqarolik sud ishlarini yuritishda taraflarning huquqiy bilim darajasi turlicha bo'lgani sababli yuridik yordam olish huquqi odil sudlovni ta'minlashning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir shaxsning huquq va erkinliklari sud orqali himoya qilinishi belgilangan.

Shu bilan birga, malakali yuridik yordam olish huquqi ham konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan. Mazkur huquq fuqarolik protsessual munosabatlarida taraflarning tengligi, tortishuv tamoyili hamda odil sudlov prinsiplarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik protsessual huquqida yuridik yordam olish huquqining asosiy kafolatlaridan biri bu — uning normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlanganligidir. O'zbekiston Respublikasida mazkur huquq Konstitutsiya, kodekslar va maxsus qonunlar orqali kafolatlanadi.

Bu esa fuqarolarning sudda o'z huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida har kim malakali yuridik yordam olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy norma shaxsning odil sudlovdan foydalanish huquqini amalga oshirishning muhim kafolati hisoblanadi.

Konstitutsiya davlatga inson huquq va erkinliklarini himoya qilish majburiyatini yuklaydi.

Fuqarolik protsessual kodeksida ham yuridik yordam olish huquqini ta'minlashga qaratilgan qoidalar mustahkamlangan. Xususan, taraflar o'z ishlarini sudda shaxsan yoki vakil orqali yuritish huquqiga ega. Vakil sifatida advokat ishtirok etishi mumkin bo'lib, u tarafning huquq va manfaatlarini professional asosda himoya qiladi. Sud esa ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirishi shart.

Shuningdek, "Advokatura to'g'risida"gi Qonun advokatlar faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab, ularning mustaqilligini kafolatlaydi. Mazkur qonunga ko'ra, advokat fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatuvchi mustaqil professional shaxs hisoblanadi. Davlat advokatning qonuniy faoliyatiga aralashmaslikni kafolatlaydi.

Yuridik yordam olish huquqining muhim normativ kafolatlaridan yana biri — O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni hisoblanadi.

Mazkur qonun aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini malakali yuridik yordam bilan ta'minlash maqsadida qabul qilingan bo'lib, odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu qonunga muvofiq, ayrim toifadagi shaxslarga davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatiladi. Bunday shaxslar qatoriga kam ta'minlangan fuqarolar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yetim bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifadagi fuqarolar kiritilishi mumkin.

Qonunning asosiy maqsadi — moddiy imkoniyati cheklangan shaxslarning ham sud orqali huquqlarini himoya qilish imkoniyatini ta'minlashdan iborat.

Davlat hisobidan yuridik yordam quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- huquqiy maslahat berish;
- huquqiy hujjatlarni tayyorlash;
- sudlarda va boshqa organlarda vakillik qilish;
- huquqiy axborot taqdim etish.

Mazkur qonun fuqarolarning teng huquqlilik prinsipini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ayrim holatlarda shaxsning moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi uning sud himoyasidan samarali foydalanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilishi esa bunday tengsizlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur qonun advokatura tizimini ijtimoiy himoya mexanizmi bilan uyg'unlashtirib, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi.

Natijada fuqarolarning huquqiy himoyasi darajasi oshadi va sud adolatiga bo'lgan ishonch kuchayadi.

Demak, normativ-huquqiy kafolatlar yuridik yordam olish huquqining mustahkam huquqiy poydevorini yaratadi. Ayniqsa, "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonun ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolik sudlovida tenglik prinsipini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik ishlarida malakali yuridik yordam ko'rsatishning asosiy yuklamasi advokatlar zimmasiga tushadi. Qonunchilik advokatning protsessda erkin va samarali ishtirok etishi uchun bir qancha kafolatlarni taqdim etadi:

- **Teng huquqlilik:** Advokat sud protsessida da'vogar yoki javobgarning vakili sifatida qarshi taraflar bilan mutlaqo teng huquqlarga ega. U dalillar to'plashi, sudga taqdim etishi va ekspertizalar tayinlashni so'rashi mumkin.

- **Advokatlik siri:** Advokatga murojaat qilinganligi, yordamning mazmuni va maslahatlar sir saqlanishi qonun bilan himoya qilinadi. Advokat ushbu ish bo'yicha guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas.

- **Daxlsizlik:** Advokatning kasbiy faoliyati bilan bog'liq hujjatlar va materiallarni tintuv qilish yoki olib qo'yish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga asosan, har kim o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun yuridik yordam so'rab o'zi hoxlagan har qanday advokatga murojaat qilishga haqli. Ushlab turilgan shaxsga ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumg advokat bilan moneliksiz holi uchrashish va hamda undan maslahat olish uchun zarur shart-sharoit ta'minlanishi lozim. deb belgilangan norma fuqarolik-huquqiy nizolarda taraflarning tengligi va tortishuvchanlik tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur modda fuqarolik protsessi kontekstida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik nizolarida advokatni erkin tanlash huquqi Mulkiy, oilaviy, mehnat, uy-joy yoki shartnomaviy majburiyatlar bilan bog'liq fuqarolik ishlarida qonunchilik murakkabligi bois oddiy fuqarolar o'z huquqlarini mustaqil va professional darajada himoya qila olmasliklari mumkin. Konstitutsiyaning ushbu normasi har bir da'vogar yoki javobgarga davlat organlari yoki boshqa shaxslarning aralashuvisiz, o'z ishini ishonib topshira oladigan himoyachini (advokatni) mustaqil tanlash huquqini beradi. Advokatni erkin tanlash huquqi fuqarolik sudida vakillik institutining samaradorligini oshiradi. Bunda fuqaro o'zi xohlagan, mazkur nizo toifasi bo'yicha chuqur ixtisoslashgan advokatni tanlash orqali sudda o'z pozitsiyasini kuchaytiradi.

Davlat hech bir holatda fuqarolik ishi bo'yicha shaxsga muayyan bir vakilni majburlab taqay olmaydi. Bu esa fuqaro va advokat o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni ta'minlab, fuqarolik sudida adolatli qaror chiqishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Izolyatsiyadagi shaxslarning fuqarolik huquqlarini himoya qilish kafolati Moddaning ikkinchi qismida ushlab turilgan shaxs, ayblanuvchi yoki mahkumlarga advokat bilan moneliksiz va xoli uchrashish huquqi berilgan. Birinchi qarashda bu qoida faqat jinoyat huquqiga tegishlidek tuyulsa-da, fuqarolik protsessida uning o'rni juda katta. Sababi, ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan yoki tergov hibsonasida bo'lgan shaxslar ham fuqarolik huquqiy munosabatlarning to'laqonli subyekti hisoblanadi.

Masalan, hibsdan yoki jazoni ijro etish muassasasida bo'lgan shaxs ishtirokida nikohdan ajratish, mol-mulkni bo'lish, meros huquqi, uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotish yoki qarzdorlikni undirish kabi fuqarolik ishlari ko'rilayotgan bo'lishi mumkin.

Ushbu konstitutsiyaviy norma izolyatsiyadagi shaxsning o'zi ishtirok etayotgan fuqarolik ishi bo'yicha advokati bilan mutlaqo maxfiy, hech qanday uchinchi shaxslarning kuzatuv va eshituvsiz uchrashishini kafolatlaydi. Agar bunday sharoit yaratilmasa, shaxs o'z mulkiy va oilaviy manfaatlarini himoya qilish strategiyasini advokati bilan erkin muhokama qila olmaydi, bu esa Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan taraflarning tengligi tamoyilini qo'pol ravishda buzadi.

Tortishuvchanlik tamoyili va advokatlik siri Fuqarolik protsessi tortishuvchanlik asosida quriladi: har bir taraf o'z talab va e'tirozlariga asos bo'lgan holatlarni o'zi isbotlab berishi shart.

Shaxsning o'z advokati bilan xoli uchrashishi va maslahat olishi advokatlik sirining daxlsizligini ta'minlaydi.

Sud jarayonida qarshi taraf (masalan, yirik korporatsiya yoki davlat organi) da'vogar yoki javobgarining himoya taktikasi, to'plagan dalillari va suhbat mazmunidan oldindan xabardor bo'la olmaydi. Maxfiylik va moneliksiz muloqot sharoiti advokatga o'z mijozidan ishga aloqador barcha haqiqiy holatlarni bilib olishga va sudda qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga imkon beradi.

Ushbu modda fuqarolik sud ishlarini yuritishda shaxsning mulkiy va nomulkiy huquqlarini professional darajada himoya qilishning oliy kafolatidir. U fuqaroning jamiyatdagi ijtimoiy va protsessual maqomidan qat'i nazar, uning odil sudlovga bo'lgan huquqini teng ta'minlashga xizmat.

Yuridik yordam olish huquqining eng muhim ijtimoiy kafolatlaridan biri — bu kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga **davlat hisobidan (bepul) yuridik yordam** ko'rsatish tizimidir.

So'nggi yillarda qabul qilingan "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonunga asosan, nafaqat jinoiy ishlarda, balki ma'lum toifadagi fuqarolik ishlarida ham (masalan, aliment undirish, mehnat nizolari, ijtimoiy nafaqalar bilan bog'liq ishlar bo'yicha) moddiy imkoniyati cheklangan fuqarolarga davlat hisobidan advokat jalb etish imkoniyati kengaytirildi.

Bugungi kunda yuridik yordam olish imkoniyatlarini kengaytirishda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) muhim rol o'ynamoqda.

- **"Adolat tizimi:** Fuqarolar va ularning advokatlari sudga arizalarni elektron shaklda yuborishlari, ish hujjatlari bilan masofadan tanishishlari va sud majlislarida videokonferensaloqa orqali ishtirok etishlari mumkin.

- **"Yuridik madad" portali:** Fuqarolarga onlayn rejimda birlamchi bepul huquqiy maslahatlar beruvchi elektron platformalar ishga tushirilgan bo'lib, bu sudga borishdan oldin ham fuqaroning huquqiy savodxonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fuqarolik protsessual huquqida yuridik yordam olish huquqining kafolatlanishi shunchaki rasmiy qoida emas, balki jamiyatda adolat tarozi tengligini ta'minlovchi real mexanizmdir.

Qonunchilikning takomillashib borishi, advokatura mustaqilligining kuchaytirilishi va bepul yuridik yordam ko'lamining kengaytirilishi har bir fuqaroning o'z huquqlarini sudda professional darajada himoya qila olishiga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu mexanizmlarni yanada soddalashtirish va sud tizimini to‘liq xalqchil qilish davlat huquqiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatlar faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonun
2. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
4. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun